

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI O'ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI



Ro'yxarga olindi:

175
“29” 08 2022 yil

“TASDIQLAYMAN”
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
dots. O.N.Bozorov



O'ZBEKISTON TARIXI FANI SILLABUSI (Bakalavr ta'lif yo'naliishlari uchun)

Ma'ruza	30 soat
Seminar	30 soat
Mustaqil ta'lif	60 soat
Jami:	120 soat

Bilim sohasi 700000-Muhandislik
ishlov berish va qurilish sohalari

Ta'lif sohasi 710000-Muhandislik ishi

Ta'lif yo'naliishi (1.01)) 60411700 –
Logistika (Agrologistika)

Qarshi – 2022 yil

Tuzuvchi: **Ergasheva Yulduz Alimovna** – O’zbekiston tarixi kafedrasi mudiri, tarix fanlari doktori, professor
Vasiyeva Dilorom Ibragimovna – O’zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti

Taqrizchilar **Ahmedov B.** – “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri, dotsent
Ochilova G. – “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti

Ishchi dastur Qarshi muhandislik iqtisodiyot institutining 2022-yil 28-iyundagi 11-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan fanning namunaviy dasturi asosida tayyorlandi. 2022-yil ____ avgustda kafedra majlisida ko’rib chiqilib, institut Uslubiy Kengashida (bayonnomma №1, 29 avgust 2022 yil) tasdiqlanib o’quv jarayonida foydalanishga ruxsat etilgan.

Kafedra mudiri:



prof. Yu.Ergasheva

**O’quv-uslubiy
boshqarma boshlig’i:**



Sh. Turdiyev

“O’zbekiston tarixi” fani sillabusi

Fan (modul) kodi	O’quv yili 2022-2023	Semestr 1/2	ECTS krediti 4
Fan (modul) turi Majburiy	Ta’lim tili o’zbek tili		Haftalik dars soati 4
Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim	Jami yuklama
O’zbekiston yangi tarixi	60	60	120

O‘qituvchi haqida ma’lumot

Kafedra nomi	O’zbekiston tarixi		
<i>O’qituvchilar</i>	F.I.SH.	Telefon nomeri	e-mail
<i>Ma’ruzachi</i>			
<i>Amaliy mashg‘ulot</i>			
<i>Mustaqil ta’lim mashg‘uloti</i>			

I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishning maqsadi - yosh avlod ongida insoniyat uchun eng muhim bo‘lgan ma’naviyatni shakllantirish hamda yanada yuksaltirish, milliy tarix, milliy g‘urur va iftixon manbai hisoblanishini yosh avlod ongiga singdirish, ularda tarixiy xotira, tarixiy tafakkur ko‘nikmasini tarbiyalash milliy g‘oya va yuksak ma’naviy dunyosini boyitish, ularni o‘z xalqi va Vataniga sadoqat, amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining faol ishtirokchisi bo‘lish ruhida fikrlash va yashashga o‘rgatishdan iborat.

Fanni o‘qitishning vazifalari:

- Vatanimiz hududlarida eng qadimgi davrlardan boshlab bo‘lib o‘tgan tarixiy-madaniy jarayonlarni xolisona hamda manbalarga tayangan holda tahlil qilish, o‘rganish, ularning sabablari va mohiyatini ochib berish;
- Yoshlarimizda o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, tarixiy qadriyatlariga hurmat, boy tariximizni qadrlash fazilatlarini shakllantirish;
- tarixning turli davrlarida mamlakat iqtisodiy va madaniy ravnaqi uchun fidoyilik qilgan davlat arboblari, ulug‘ sarkardalar, ilm-fan hamda madaniyat namoyandalari, milliy qahramonlar faoliyatini xolisona baholash asosida yoshlarimizni millatparvarlik ruhida tarbiyalash;
- tarixiy xotira asosida yoshlarimizni “Biz hech kimdan kam emasmiz va kam bo‘lmaymiz” g‘oyasi ruhida tarbiyalash;
- hozirgi kunda mamlakatimizda o‘tkazilayotgan islohotlar va juda ko‘plab bo‘layotgan zamonaviy o‘zgarishlar mohiyatini, huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo‘lidagi yangiliklarni, O’zbekistonning jahon hamjamiyatga integratsiyalashuvi jarayonlarini yoshlarga yetkazish.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

№	Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari	Ma'ruza
1	<p>1-mavzu. Kirish. Ўзбекистон tarixi fanining predmeti, uni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati</p> <ol style="list-style-type: none"> O'zbekiston tarixi fanining predmeti va tadqiqot obyekti, nazariy metodologik tamoyillari. O'zbekiston tarixining jahon xalqlari tarixi bilan uzvii bog'liqligi. O'zbekiston tarixining dolzarb muammolari. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov asarlarida bu masalalarning yoritilishi. O'zbekiston tarixini o'rganishda moddiy va yozma manbalarning o'rni hamda ahmiyati. Ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar ekanligi. Har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol, ongida milliy g'oya va Vatan ravnaqi mafkurasini ustunlik qiladigan, yuksak ma'naviyatli komil insonlarni tarbiyalashda O'zbekiston tarixi fanining o'rni. Vatan tarixini davrlashtirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev XXI asr barkamol avlodni, ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarix fanining o'rni va saboqlari xususida. 	2
2	<p>2-mavzu. Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi</p> <ol style="list-style-type: none"> Sivilizatsiya tushunchasi. O'zbekiston qadimgi sivilizatsiya va madaniyat beshigi. Insonning paydo bo'lishi xususidagi qarashlar va nazariyalar. Antropogenez jarayoni. Insoniyatning dastlabki ajdodlari, ularning makonlari. Vatanimiz odamzod ilk bor paydo bo'lgan mintaqalardan biri ekanligi. Qadimgi odamlarning turmush tarzi, mashg'ulotlari. Ibtidoiy jamiyat, uni davrlashtirish va bu boradagi yangicha yondashuvlar. Paleolit (qadimgi tosh) davri. Mezolit (o'rta tosh) davri. Neolit (yangi tosh) davri. Eneolit davri. Bronza davri, uning yodgorliklari: Namozgoh, Oltintepa, Sopollitepa, Tozabog'yob, Amirobod, Chust madaniyatları. Vatanimiz hududlarida o'troq dehqonchilikning rivojlanishi. Patriarxal ota urug'i munosabatlarining yuzaga kelishi. Zardushtiylik ta'lomi, uning jahon sivilizatsiyasidagi o'rni. "Avesto". "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal". "Avesto"ning insonning ma'naviy hayotini shakllantirishdagi o'rni. 	2
3	<p>3-mavzu. O'zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari</p> <ol style="list-style-type: none"> Davlatchilik tushunchasi. Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari va omillari. O'lkamiz hududlarida dastlabki davlatlarning tashkil topishi. Ilk davlatchilik shakllari xususidagi munozaralar. Qadimgi Xorazm davlati. Xorazm haqidagi yozma va arxeologik ma'lumotlar, hududiy chegaralari masalalari. "Katta Xorazm". Qadimgi Baqtriyal davlati. Yozma va arxeologik ma'lumotlar. Baqtrianing hududiy chegaralari. Sug'd (Sug'diyona) va uning hududi. Ahmoniyalarning O'rta Osiyon bosib olishi. Mahalliy aholining bosqinchilarga qarshi ozodlik uchun kurashi. To'maris, Shiroq qahramonligi. Frada qo'zg'oloni. Yunon-makedon qo'shinlarining Aleksandr Makedonskiy boshchiligidagi 	2

	<p>O'rta Osiyoga yurishi. Spitamen boshchiligidagi harakatlar.</p> <ol style="list-style-type: none"> 4. Qang' davlatining tashkil topishi. Yuechji qabilalarining O'rta Osiyoga kirib kelishi. Kushonlar (guyshuan) sulolasining siyosiy hokimiyatni egallashi. Kushonlar tomonidan mintaqadagi siyosiy uyushmalarning birlashtirilishi. 5. Qadimiy yozuv madaniyati. Oromiy yozuvi. Baqtriya, Xorazm, Sug'd yozuvlaring Oromiy yozuvi tarkibidan ajralib chiqishi. Yunon-Baxtar yozuv. 6. Buyuk ipak yo'lining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. «Lojuvard yo'li», «Shoh yo'li», «G'arbiy meridional yo'l». 	
4	<p>4-mavzu. O'zbek xalqining etnik shakllanishi</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'zbek xalqi etnogenezi va uning tarixshunosligi. Urug', qabila, elat, xalq va millat tushunchalari. O'zbek xalqining etnik shakllanishi va uning asosiy bosqichlari. 2. Mil.av. I ming yillikning o'rtalarida Markaziy Osiyo hududlaridagi etnik va ijtimoiy holat. Aholi o'rtasidagi etnik va madaniy munosabatlar. Milodiy I ming yillik o'rtasida bu jarayonning yanada jonlanishi. 3. IX-XII asrlarda qarluqlar, o'g'uzlar, qipchoqlar, chigillar va boshqa turkiy qavmlarning o'zbek xalqining etnik shakllanishidagi o'rni. 4. XV asr oxiri - XVI asrlarda O'rta Osiyoga Dashti Qipchoq qabilalarining kirib kelishi va mahalliy aholi bilan aralashib, o'troqlashuvi. "O'zbek" atamasi. 5. Sovet davrida O'rta Osiyoda "milliy davlat chegaralanishi"ning o'tkazilishi, Turkiston o'lkasining etnik va hududiy jihatdan parchalanib ketishi. Mintaqada O'zbekiston va boshqa respublikalarning tashkil topishi. 6. O'zbekistonning milliy mustaqillik davridagi etnik holati va bu sohadagi o'zgarishlar. Millatlararo do'stlik va hamjihatlik. 	2
5	<p>5-mavzu. Ilk o'rta asrlarda o'zbek davlatchiligi va ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Xioniylar va kidariylar. O'rta Osiyo hududlariga ko'chmanchi qabilalarning yurishlari. Eftaliylar. O'rta Osiyoda eftaliylar davlatining shakllanishi, uning hududiy chegarasi. Eftaliylar va Eron sosoniylari. Eftaliylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot 2. Turk xoqonligining vujudga kelishi. Bumin hoqon. Istami Yabg'u xoqon. Xoqonlik aholisining etnik tarkibi va tili. Turk xoqonligi tomonidan O'rta Osiyo va Uraloldi hududlarining zabit etilishi. Turk xoqonligi davrida mamlakat boshqaruv usuli. 3. Arab xalifaligi. Xalifalar tomonidan amalga oshirilgan istilochilik yurishlari. Movarounnahrning Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi arab qo'shini tomonidan istilo qilinishi. 4. Mustamlaka zulmining yanada kuchayishi. G'urak va Devashtich. Xalq g'alayonlari. Muqanna qo'zg'oloni va uning tarixiy ahamiyati. Arab xalifaligining zaiflashuvi. 5. Islom dinining yoyilishi. Masjidlar qurilishi. Qur'on-karim – muqaddas kitob.. Hadislar va ularning ijtimoiy-siyosiy mohiyati. Islom dini ta'limotini rivojlantirishda O'rta Osiyolik olimlarining hissasi. 	4
6	<p>6-mavzu. IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi. O'rta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergen uyg'onish davri. Fan va madaniyatning yuksak ravnaqi. Mo'g'ullar istilosiga va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi – Vatan himoyachisi</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. IX asr boshlarida Movarounnahrning siyosiy ahvoli. Mahalliy zodagonlar mavqeining o'sishi. Tohiriyalar davlati. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Tohiriyalar bilan safforiylar o'rtasidagi kurash. 2. Somoniylar sulolasi. Ismoil Somoni. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Davlatni boshqarish tartibi. G'aznaviyalar davlati. Sabuktagin va Mahmud G'aznaviy davrida davlatning kuchayishi. G'aznaviyalar bilan saljuqiylar o'rtasidagi to'qnashuv. Saljuqiylar 	2

	<p>davlati. Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. Xorazmshoh-Anushteginiylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Muhammad Xorazmshoh. Xorazmshoh-Anushteginiylar davlatining o'rta asr SHarqida tutgan o'rni. Davlat boshqaruvi.</p> <p>3. «Uyg'onish davri. Uning mazmun va mohiyati. IX-XII asrlar O'rta Osiyoda madaniy yuksalishni ta'minlagan omillar va shart-sharoitlar.</p> <p>4. IX-XII asrlarda islom dini va so'fiylik. IX-XII asrlarda me'morchilik va san'at.</p> <p>5. Chingizxon (Temuchin)ning mo'g'ullarni birlashtirib, kuchli davlat tuzishi. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga istilochilik yurishlari. Temur Malik jasorati. Jaloliddin Manguberdi-Vatan himoyachisi.Chig'atoy ulusining tashkil topishi. Boshqaruv tartibi.</p>	
7	<p>7-mavzu. Amir Temur va Temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot</p> <p>1. XIV asr o'rtalarida Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Amir Temur Movarounnahr siyosiy kurash maydonida. Sohibqiron Amir Temur hokimiyatining o'rnatilishi. Amir Temurning mamlakatni birlashtirish va markazlashgan kuchli davlat tuzishdagi tarixi xizmati.</p> <p>2. Amir Temurning harbiy yurishlari. Amir Temur - buyuk davlat arbobi, mashhur sarkarda. Uning harbiy va siyosiy faoliyati tahlili. "Kuch -adolatda" shiorining mazmun-mohiyati. Amir Temurning O'rta Osiyo va jahon tarixida tutgan o'rni.</p> <p>3. Davlat siyosatida islom dinining roli. Saltanatni boshqarish tizimi. Qo'shining tuzilishi va harbiy intizom. Soliq siyosati. "Temur tuzuklari" – davlat boshqaruv ishidagi muhim manba sifatida. Mamlakatni boshqarishning suyurg'ol usuli.</p> <p>4. Amir Temur vafotidan keyin temuriy shahzodalar o'rtasida toju-taxt uchun ichki kurashlar. Markazlashgan davlatning parchalanishi. Shohruh Mirzo hukmronligi davrida temuriylar saltanati.</p> <p>5. Movarounnahrda Mirzo Ulug'bek hukmronligi. Ichki va tashqi siyosat. Mirzo Ulug'bek davrida madaniyat, ilm-fan va adabiyot ravnaqi.</p>	2
8	<p>8-mavzu. O'zbekiston hududlarining xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari</p> <p>1. Tarixiy yozma manbalar. Muhammad SHayboniyxon yurishi. Movarounnahr va Xurosonning shayboniylar tomonidan bosib olinishi va shayboniylar sulolasining Movarounnahrga hukmronligining o'rnatilishi. SHayboniylar sulolasining boshqaruv tizimi. SHayboniylar davrida madaniy hayot.</p> <p>2. Buxoro xonligining tashkil topishi. Abdullaxon II. Uning mamlakatni markazlashtirishga ko'rsatilgan harakatlari Obodonlashtirish, madrasa, machit, yangi imoratlar, sug'orish inshootlarini qurish ishlari. Buxoro xonligida ashtarxoniyalar (joniyalar) sulolasining hukmronligining o'rnatilishi. Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli.</p> <p>3. Madaniy hayot rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. Buxoro xonligida hokimiyatning mang'it amirlari qo'liga o'tishi. Mang'itlar davrida Buxoro amirligining ijtimoiy va davlat tuzumi. Buxoro amirligida madaniy hayot.</p> <p>4. Xiva xonligining tashkil topishi. SHayboniylarning Xivadagi xukmronligi. Elbarsxon, Abulg'ozixon, Anushoxon. Qo'ng'irot sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Muhammad Rahimxon davrida xonlik chegaralarining kengaytirilishi. Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy axvol.</p> <p>5. XVIII asrda Farg'ona vodiysidagi siyosiy vaziyat. O'zbeklarning ming urug'idan bo'lgan Shohruhbiy tomonidan Qo'qon xonligiga asos solinishi. Xonlikning hududi va aholisi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti. Qo'qon xonligida madaniy hayot.</p>	4
9	<p>9-mavzu. O'zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakati. Jadidchilik</p> <p>1. Mavzu tarixshunosligi. XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ijtimoiy-siyosiy</p>	2

	<p>ahvoli va o‘zaro munosabatlari. O‘rta Osiyo masalasida Angliya bilan Rossiya o‘rtasidagi raqobat.</p> <ol style="list-style-type: none"> 2. Rossiya imperiyasi qo‘shinlarining Qo‘qon xonligi hududlariga hujumi. Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi. 3. Kaufmanning Xiva xonligiga bosqinchilik yurishi. Qo‘qon xonligida siyosiy tanglik. Xalq qo‘zg‘oloni. Rossiya imperiyasi tomonidan Qo‘qon xonligining bosib olinishi va xonlikning tugatilishi. Farg‘ona viloyatining tashkil etilishi. 4. Rossiya aholisini ko‘chirib keltirish siyosati. Mahalliy aholining unumdon yerlardan siqib chiqarilishi. Mustamlakachilikni kuchaytirishga qaratilgan madanjy va ma’rifiy siyosat. Rus-tuzem maktablari. Xiva xonligi va Buxoro amirligi chor Rossiyasi zulmi ostida. 5. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozod-lik harakatining boshlanishi, uning bosqichlari. Farg‘ona vodiysidagi xalq harakatlari. Toshkent qo‘zg‘oloni. Andijon qo‘zg‘oloni va b. 6. Jadidlar harakatining yuzaga kelishi. Uning atoqli vakillari. Birinchi jaxon urushining o‘lka hayotiga salbiy ta’siri. 1916 yilgi xalq qo‘zg‘oloni va uning xarakteri. 	
10	<p>10-mavzu. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o‘rnatalishi va unga qarshi qurolli harakat. Sovet davlatida ma’muriy buyruqbozlik tuzumining kuchayishi va inqirozi davrida O‘zbekiston (1946-1991 yy.)</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Rossiyada 1917 yil fevral burjua-demokratik inqilobi va uning Turkistonga ta’siri. Sovetlar hokimiyatining o‘rnatalishi. Farg‘ona vodiysida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatning boshlanishi, uning mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari, bosqichlari. 2. 20-yillarda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat. Yer-suv islohotlari. O‘rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi. Siyosiy qatog‘onlar. 3. Ikkinchi jahon urushi. O‘zbekistonning urush girdobiga tortilishi. O‘zbekiston jangchilarining frontda ko‘rsatgan jasoratlari. 4. XX asrning 50-60 yillarda janubiy O‘zbekistonda ijtimoiy ta’minot va sog’liqni saqlash tizimidagi mavjud muammolar hamda aholining ijtimoiy turmush sharoiti va uni yaxshilashning asosiy yo‘nalishlari. 5. 80-yillarning o‘rtalarida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotdagi inqiroz. «Qayta qurish» va uning cheklanganligi. «Paxta ishi», «O‘zbeklar ishi». Ommaviy qatog‘onlar. Farg‘ona fojeasi. 6. Islom Karimovning O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo‘mitasiga birinchi kotibi etib saylanishi. Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida o‘zgarishlar. 1991 yil avgust voqealari. SSSRning tanazzulga yuz tutishi. 	2
11	<p>11-mavzu. O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol. O‘zlikni anglashga intilishning kuchayishi. Siyosiy tizimdagagi o‘zgarishlar. 2. O‘zbekistonning davlat mustaqilligini e’lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. 3. Mustaqillikning ilk davrida davlat suverenitetini mustahkamlash yo‘lidagi sa’yi-harakatlar. 4. 1991 yil 29 dekabrdagi referendum va umumxalq tomonidan O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini ma’qullanishi. I. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi. 	2
12	<p>12-mavzu. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Siyosiy islohotlar. Davlat hokimiyatining milliy, huquqiy, demokratik asoslarining barpo etilishi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiylatlari. 	2

	<p>2. Ko‘ppartiyaviylik tizimiga asos solinishi. O‘zbekiston parlamenti. Ikki palatali parlament. Vazirlar Mahkamasi, uning ijro etuvchi hokimiyatning muhim bo‘g‘ini sifatidagi o‘rni. Xalq xo‘jaligi tizimi boshqaruvidagi islohotlar.</p> <p>3. Sud hokimiyati islohotlari. Mahalliy davlat hokimiyati organlari. O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyatini asoslarining yaratilishi.</p> <p>4. Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqaruv organlari. Millatlararo tinchlik va totuvlikning ta‘minlanishi. O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. Inson haq-huquqlari.</p>	
13	<p>13-mavzu. Mustaqillik yillarda O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy taraqqiyoti</p> <p>1. Taraqqiyotning «O‘zbek modeli». Iqtisodiy islohotlar. Davlat mulkini xususiyashtirish mexanizmining yaratilishi.</p> <p>2. Ko‘p ukladli iqtisodiyot. Tadbirkorlikning rivojlanishi. Bozor infratuzilmasi shakllanishi. Iqtisodiyotdagi chuqr tarkibiy o‘zgarishlar. Agrar islohotlar. Iqtisodiy barqarorlikning ta‘minlanishi. Kuchli ijtimoiy siyosat.</p> <p>3. Mustaqillik yillarda ma’naviy hayot. Ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi. Diniy qadriyatlar va islom ma’naviyatining tiklanishi. Milliy g‘oyani aholi ongiga singdirish zarurati. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlardagi barqarorlik.</p> <p>4. "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi (11 yillik mакtablarning tiklanishi. Yangi tipdagi kasb-hunar maktablarining, kollej va texnikumlarning tashkil etilishi). Oliy ta’lim sohasida qabul qilingan qonunlar va ularda belgilangan vazifalar.</p> <p>5. O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanishi. Madaniyat va san’at. Jismoniy tarbiya va sport. Qoraqalpog‘istonning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy taraqqiyoti.</p>	2
14	<p>14-mavzu. O‘zbekistonning jahon hamjamiatiga integrasiyalashuvi</p> <p>1. Tinchliksevar mustaqil tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi. O‘zbekistonning jahon hamjamiatiga qo‘shilishi. BMT, YEXHTga a‘zo bo‘lishi va ular bilan ko‘p tomonlama hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi. SHanxay hamkorlik tashkiloti va O‘zbekiston.</p> <p>2. O‘zbekiston va MDH. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro hamkorligi. O‘zbekistonning yevropa ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorliklari.</p> <p>3. Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiysi. O‘zbekiston tashqi siyosatida Rossiya, AQSH, Xitoy mamlakatlarining o‘rni. O‘zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash borasida olib borgan siyosati.</p> <p>4. Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari. Xalqaro terrorizm, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashda O‘zbekiston Respublikasining faolligi. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqr o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar.</p>	2
15	<p>15-mavzu. Yangilanayotgan O‘zbekiston: milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari</p> <p>1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi, hayotga joriy etilishi va uning ahamiyati.</p> <p>2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va unda belgilangan ustuvor yo‘nalishlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari; - Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud huquq tizimini yanada isloh qilishning 	

<p>ustuvor yo‘nalishlari;</p> <ul style="list-style-type: none"> - Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari; - Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari; - xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqr o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar; <p>3. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida “Harakatlar strategiyasidan Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili ilgari surilgan.</p> <p>4. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; - mamlakatimizdaadolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish; - milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash; - adolatlilik ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish; - ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish; - milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish, - mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish. 	
JAMI:	30 soat

IV. Seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlarida talabalar O‘zbekiston tarixi fanidan ma’ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qo‘srimcha adabiyotlar va manbalar bilan tanishish orqali qo‘srimcha bilim oladilar. Natijada, ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Seminar mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

№	Seminar mashg‘ulotlari mavzulari	Seminar
1	<p>1-mavzu. Markaziy Osiyo jahon sivilizasiyasining ajralmas qismi</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Sivilizasiya tushunchasi. O‘zbekiston qadimgi sivilizasiya va madaniyat beshigi. 2. Insonning paydo bo‘lishi xususidagi qarashlar va nazariyalar. Antropogenetika jarayoni. Insoniyatning dastlabki ajdodlari, ularning makonlari. Vatanimiz odamzod ilk bor paydo bo‘lgan mintaqalardan biri ekanligi. Qadimgi odamlarning turmush tarzi, mashg‘ulotlari. 3. Ibtidoiy jamiyat, uni davrlashtirish va bu boradagi yangicha yondashuvlar. Paleolit (qadimgi tosh) davri. Mezolit (o‘rta tosh) davri. Neolit (yangi tosh) davri. Eneolit davri. Bronza davri, uning yodgorliklari: Namozgoh, Oltintepa, Sopollitepa, Tozabog‘yob, Amirobod, Chust madaniyatları. Vatanimiz hududlarida o‘troq dehqonchilikning rivojlanishi. Patriarxal ota urug‘i munosabatlarining yuzaga kelishi. 4. Zardushtiylik ta’limoti, uning jahon sivilizasiyasidagi o‘rnii. “Avesto”. “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal”. “Avesto”ning insonning ma’naviy hayotini shakllantirishdagi o‘rnii. 	2

	2-mavzu. O‘zbekiston hududida dastlabki davlatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanish bochqichlari (qadimgi, antik va ilk o‘rta asrlar)	
2	<ol style="list-style-type: none"> 1. Davlatchilik tushunchasi. Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari va omillari. O‘lkamiz hududlarida dastlabki davlatlarning tashkil topishi. Ilk davlatchilik shakllari xususidagi munozaralar. 2. Qadimgi Xorazm davlati. Xorazm haqidagi yozma va arxeologik ma’lumotlar, hududiy chegaralari masalalari. “Katta Xorazm”. Qadimgi Baqtriya davlati. Yozma va arxeologik ma’lumotlar. Baqtrianing hududiy chegaralari. Sug’d (Sug‘diyona) va uning hududi. 3. Ahmoniyarning O‘rta Osiyon bosib olishi. Mahalliy aholining bosqinchilarga qarshi ozodlik uchun kurashi. To‘maris, Shiroq qahramonligi. Frada qo‘zg‘oloni. Yunon-makedon qo‘sishlarining Aleksandr Makedonskiy boshchiligidagi O‘rta Osiyoga yurishi. Spitamen boshchiligidagi harakatlar. 4. Antik davlatlarning tashkil topishi. Yuechji qabilalarining O‘rta Osiyoga kirib kelishi. Kushonlar (guyshuan) sulolasining siyosiy hokimiyatni egallashi. 5. Eftaliylar. Turk xoqonligining vujudga kelishi. Arab xalifaligi. Xalifalar tomonidan amalga oshirilgan istilochilik yurishlari. 	2
3	3-mavzu. O‘zbek xalqining etnik shakllanishi	
3	<ol style="list-style-type: none"> 1. O‘zbek xalqi etnogenezi va uning tarixshunosligi. Urug‘, qabila, elat, xalq va millat tushunchalari. O‘zbek xalqining etnik shakllanishi va uning asosiy bosqichlari. 2. Mil.av. I ming yillikning o‘rtalarida Markaziy Osiyo hududlaridagi etnik va ijtimoiy holat. Aholi o‘rtasidagi etnik va madaniy munosabatlar. Milodiy I ming yillik o‘rtasida bu jarayonning yanada jonlanishi. 3. IX-XII asrlarda qarluqlar, o‘g‘uzlar, qipchoqlar, chigillar va boshqa turkiy qavmlarning o‘zbek xalqining etnik shakllanishidagi o‘rni. 4. XV asr oxiri - XVI asrlarda O‘rta Osiyoga Dashti Qipchoq qabilalarining kirib kelishi va mahalliy aholi bilan aralashib, o‘troqlashuvi. “O‘zbek” atamasi. 5. O‘zbekistonning milliy mustaqillik davridagi etnik holati va bu sohadagi o‘zgarishlar. Millatlararo do’stlik va hamjihatlik. 	2
4	4-mavzu. IX-XII asrlarda O‘rta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergen uyg‘onish (renessans) davri: fan va madaniyat ravnaqi <ol style="list-style-type: none"> 1. «Uyg‘onish davri. Uning mazmun va mohiyati. IX-XII asrlar O‘rta Osiyoda madaniy yuksalishni ta’milagan omillar va shart-sharoitlar. 2. Xorazm Ma’mun akademiyasi. Qomusiy olimlar. Muso al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, . Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino. Olimlarning tibbiyot sohasida yutuqlari. Al-Farobi buyuk qomusiy olim. 3. Mahmud Qoshg‘ariy, Ahmad Yughnakiy, Yusuf Xos Xojib. 4. IX-XII asrlarda islom dini va so‘fiylik. . Imom Buxoriy. «Al-Jome’». Hadislar tasnifi. Imom Termiziy. Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abdusaliq G‘ijduvoniy, Najmaddin Kubro. Kubroviya oqimi. Naqshbandiya tariqati. 5. IX-XII asrlarda me’morchilik va san’at. IX-XII asrlarda me’morchilik va san’at. 	4
5	5-mavzu. Mo‘g‘ullar istilosи va zulmiga qarshi kurash	2
5	<ol style="list-style-type: none"> 1. Chingizxon (Temuchin)ning mo‘g‘ullarni birlashtirib, kuchli davlat tuzishi. Mo‘g‘ullar hujumi arafasida Xorazmshohlar davlatidagi vaziyat. Urganch kengashi. O’tor mudofaasi. Xo‘jand qamali. Temur Malik jasorati. 2. Xorazmshoh qo‘sishlarining mag‘lubiyati, uning sabablari. Jaloliddin Manguberdi- 	2

	<p>Vatan himoyachisi.</p> <ol style="list-style-type: none"> 3. Chig‘atoy ulusining tashkil topishi. Boshqaruv tartibi. Mahmud Yalavoch. Soliqlar. 4. Chingiziyalar orasidagi ichki kurash va uning Chig‘atoy ulusiga ta’siri. Kebekxonning ma’muriy va pul islohotlari. Chig‘atoy ulusining parokandalikka uchrashi. 5. Madaniy hayot. Pahlavon Mahmud, Jaloliddin Rumi. Burhoniddin Rabg‘uziy, Bahouddin Naqshband. 	
